

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммамед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддиқова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масбул котиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Узбекистан)

**Якуб Умар оғли**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Куренов Рахыммамед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Джеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Балтабаев Хамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дустмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Сиддикова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шиукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Узбекистан)

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarkhodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Nurmatova Zarifa Abdiraup qizi</b> IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
<b>2. O‘tamuradova Malohat</b> ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
<b>3. Петросьянц Эрнст Ашотович</b> ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
<b>4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi</b> O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
<b>5. Gulamova Malika Yakubovna</b> O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDAH USULLARI.....	27
<b>6. Achilova Ozoda Farxodovna</b> YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
<b>7. Nematillayevna Zubaydova</b> PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
<b>8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна</b> ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
<b>9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi</b> SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
<b>10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna</b> MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
<b>11. Malika Solieva</b> PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
<b>12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna</b> “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
<b>13. Shamuradova Naima Muxtarovna</b> DISCURSIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
<b>14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li</b> STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA‘SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
<b>15. Tashkulova Zarnigor</b> “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI..	74
<b>16. Jo‘raqulova Mushtariy</b> O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	79
<b>17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna</b> TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

<b>18. Зулфанова Нигина Нуритдиновна</b> СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
<b>19. Turakulova Sitora Fazlidinovna</b> JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
<b>20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmuratovna</b> "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
<b>21. Erkinova Ruxshona O‘tkirovna, Kurbonova Gulnoza Irkinovna</b> YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
<b>22. Qayimova Maftuna Tursunovna</b> OILAVIY MUHITDA QIZLARING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O‘ZBEKISTONDA).....	114
<b>23. Хасанова Мавлюда Батыралиевна</b> ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
<b>24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna</b> “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
<b>25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova</b> PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
<b>26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna</b> YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O‘LIMNING YANGI IFODASI.....	139
<b>27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich</b> TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
<b>28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi</b> SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE’RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
<b>29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna</b> DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA’MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
<b>30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna</b> O‘ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
<b>31. Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich</b> ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
<b>32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna</b> MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
<b>33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna</b> AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Pochta: masumamominova0409@gmail.com

**SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR  
YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18733986>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada “suv” leksemasining qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur tahlili masalalari yoritilgan. Tadqiqotda “suv” so‘zining turkiy tillardagi tarixiy shakllari, semantik taraqqiyoti va morfologik tuzilishi qiyosiy tahlil asosida o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada “suv” konsepti bilan bog‘liq metaforik, frazeologik va semantik hosilalar tizim-struktur yondashuv orqali tahlil qilinib, ularning milliy-madaniy xususiyatlari ochib berilgan. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, o‘zbek tili va unga yaqin qardosh tillardagi materiallar asosida “suv” leksemasining fonetik, morfologik va semantik o‘zgarish jarayonlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari “suv” leksemasining turkiy til tizimidagi qadimiylik, universallik va konseptual barqarorlik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Konsept, leksema, lisoniy belgi, sema, komponent, paradigma, lingvokulturologik, bosh sema, hosila sema.

**Mominova Masuma Golib kizi**

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Email: masumamominova0409@gmail.com

**COMPARATIVE-HISTORICAL, SYSTEM-STRUCTURAL RESEARCH ON THE  
ANALYSIS OF THE WATER LEXEM****ANNOTATION**

This article explores the comparative-historical and system-structural analysis of the lexeme “suv” (water). The study examines the historical forms, semantic evolution, and morphological structure of the word “suv” across Turkic languages through comparative linguistic methods. It also investigates the metaphorical, phraseological, and semantic derivatives associated with the concept of “water” using a system-structural approach, highlighting their national and cultural characteristics. Based on data from ancient Turkic written monuments, the Uzbek language, and related Turkic languages, the article provides an in-depth analysis of the phonetic, morphological, and semantic transformations of the lexeme. The findings demonstrate the antiquity, universality, and conceptual stability of the “suv” lexeme within the Turkic linguistic system.

**Keywords:** concept, lexeme, linguistic sign, seme, component, paradigm, linguoculturological, main seme, derived seme.

Мунинова Масума Голиб кизи

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Email: masumamominova0409@gmail.com

**СРАВНИТЕЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКОЕ, СИСТЕМНО-СТРУКТУРНОЕ  
ИССЛЕДОВАНИЕ ПО АНАЛИЗУ ЛЕКСЕМЫ «ВОДА»****АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются вопросы сравнительно-исторического и системно-структурного анализа лексемы «suv» (вода). Исследование направлено на изучение исторических форм, семантической эволюции и морфологического строения слова «suv» в тюркских языках на основе сравнительно-исторического метода. Также анализируются метафорические, фразеологические и семантические производные, связанные с концептом «вода», с позиции системно-структурного подхода, что позволяет выявить их национально-культурные особенности. На материале древнетюркских письменных памятников, узбекского и родственных тюркских языков подробно раскрываются фонетические, морфологические и семантические изменения данной лексемы. Результаты исследования показывают древность, универсальность и концептуальную устойчивость лексемы «suv» в системе тюркских языков.

**Ключевые слова:** концепт, лексема, языковой знак, сема, компонент, парадигма, лингвокультурологический, основная сема, производная сема.

**Kirish (Introduction).** Jahon tilshunoslik ilmida konseptlarning lingvistik birliklar orqali ifodalanishi, lug‘aviy birliklarda borliq haqidagi axborot, olam manzarasining namoyon bo‘lishi, til sohibining turmush tarzi, madaniy munosabatlari bilan aloqador belgilarining aks etishiga doir izlanishlar amalga oshirilmoqda. Leksemalar tushuncha ifodalash bilan bir qatorda lug‘aviy birliklar, frazemalar, barqaror birikmalar tarkibida kelib, konseptning umummilliy xususiyatlari va shaxs idroki, bahosiga aloqador belgilarini ham aks ettiradi. Leksema semalari, o‘z ma‘no va ko‘chma ma‘no taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy jarayonlar, milliy-madaniy dunyoqarash, qadriyatlar hamda individual baho munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Tilshunoslikda leksemaning semalar tarkibini, semantik taraqqiyotidagi o‘zgarishlarni tadqiq qilishda muammolar mavjud. Lingvistik birliklarni komponentlari ma‘nosidan kelib chiqib tahlil qilish leksemalarning konseptni ifodalash funksiyasini yoritishda, semalarini aniqlashda, madaniy semalarini belgilashda dolzarblik kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida leksema, leksemaning lisoniy belgilari, semantik tarkibi, valentlik darajasi, uzual va okkazonal semalar, milliy-madaniy xususiyatlar, ijtimoiy-diniy, milliy-madaniy munosabatga asoslangan kodlar, hosila semalarning shakllanishi va ularda millatlararo mushtarak tushunchalarning aks etishi, konsept, tushuncha, lug‘aviy ma‘noda mental ong, milliy-madaniy tafakkurning ifodalanishi yuzasidan izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada muayyan leksema semantikasi bilan bog‘liq bo‘lgan sodda va qo‘shma leksemalar, birikmalar, tasviriy ifodalalar, milliy lisoniy manzara, folklor va yozma adabiyot namunalari, frazeologizm, paremiologik fond namunalari mazmuniga qaratilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Leksema, frazema, barqaror birikmalarni muayyan konseptni ifodalash nuqtayi nazaridan tizimli ravishda tadqiq qilish lingvistik birliklarning semantik va konseptual imkoniyatlarini yoritishda ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy omillarini shakllantirish maqsadida milliy taraqqiyot yo‘nalishida faoliyat olib borilmoqda. Dastavval, o‘zbek tilining muloqotni ta‘minlash, ta‘sir etish, to‘plash vazifalarini yoritish, umumiy va xos belgilarini aniqlash, tilning ichki imkoniyatlari va semantik taraqqiyotini aks ettirishga qaratilgan tadqiqotlar hajmi ortdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan til siyosatining “o‘zbek tili ta‘limini takomillashtirish, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy an‘ana, qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy ma‘naviy merosidan g‘ururlanish va ularni yanada boyitish ruhida tarbiyalash” masalalariga yo‘naltirilganligi tilda aks etgan milliy-madaniy belgilar, qadriyat, tafakkur, idrok bilan bog‘liq xususiyatlarni, leksema semantikasidagi etnik-madaniy semalarni tadqiq etishda, til birliklarining to‘plash

imkoniyatlarini yoritishda muhimdir. Bu borada lingvistik birliklarni konseptni ifodalash vositasi sifatida talqin qilish dolzarb ahamiyatga egadir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi (Literature review).** Suv tabiat hodisasi sifatida antik davr ilm-fandan boshlab tadqiqot mavzusi bo'lib keladi. Tilshunoslik ilmi falsafa negizida shakllanganidek, olamning va insonning to'rt unsur: suv, havo, tuproq, olov bilan aloqadorligi haqidagi konseptual tahlillar eng qadimgi falsafiy ta'limotlarda amalga oshirilgan. Tilshunoslikning alohida soha sifatida rivojlanishi leksemalarni lisoniy jihatdan tahlil qilish imkonini yaratdi. Keyingi yillarda leksemalar antropotsentrik paradigma asosida tadqiq qilinmoqda. Mavzuning jahon tilshunosligida o'rganilishi XIX asr oxiri XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. N.V. Grishina [Гришина Н.В., 2002], I.G. Vrajnov [Вражнова И.Г., 2002], M.A. Sedova [Седова М.А., 2007], T.V. Mirzayeva [Мирзаева Т.В., 2008], M.I. Zakirov [Закиров М.И., 2009], D.D. Xayrullina [Хайруллина Д.Д., 2009], M. Aychichek [Айчичек М., 2012], O.V. Starostina [Старостина О.В., 2016] tadqiqotlarida muayyan leksemaning qiyosiy-chog'ishtirma aspektidagi lingvokulturologik tadqiqi amalga oshirilgan. Suv leksemasining lingvokulturologik xususiyatlari, milliy lisoniy manzarada tutgan o'rni xususidagi nazariy qarashlar tavsiflangan. U. Galdin voda konseptining verbal vositalar bilan ifodalanishini lingvokulturologik maydon o'lchovi nuqtayi nazaridan o'rgangan [Галдин У. В., 2006]. T. Badmayeva ingliz tilidagi water "suv" so'zini 30 xil nomlovchi vazifada qo'llanishi, paradigmalari, so'z yasalishi va frazeologizmlar tarkibidagi ishtiroki nuqtayi nazaridan tahlil qilgan [Бадмаева Т.И., 2006]. Y. Shmelyova tadqiqotida XX-XXI asrlar ingliz badiiy adabiyotidan to'plangan dengiz (more) konseptiga aloqador 1600 leksik birlik, "The Times" davriy nashrining 2004–2009-yillardagi sonidan to'plangan 944 birlik tahlilga tortilgan. Ishda lingvokulturologik maydon tushunchasi dengiz (more) konsepti misolida tahlil qilingan [Шмелёва Е.Е., 2009]. Suv konsepti unga yondosh bo'lgan uch unsur: havo, tuproq, olov tushunchalari tahlili jarayonida ham o'rganilgan [Потасова А.К., 2004. 34]. Suv komponenti ishtirokidagi birliklar sohaga doir etimologik, izohli, adabiy asarlar, lug'atlarda tadqiq qilingan. Rus tilining assotsiativ lug'atida вода so'zining to'qsondan ortiq assotsiatsiyalari keltirilgan.

O'zbek tilshunosligida suv leksemasi va uning bosh, hosila semalari izohli [O'TIL, 2006-2008], etimologik lug'atlarda [O'zbek tilining etimologik lug'ati, 2006] aks ettirilgan. X. Jabborov suv leksemasining lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari, leksemaning o'ttizdan ortiq xususiyatlari, maqol, matal, iboralar tarkibidagi o'rni va semantikasi xususida so'z yuritgan [Жабборов Х, 2005]. Suv leksemasi semantikasi unga aloqador tushunchalar tahliliga oid izlanishlarda ham yoritilgan. I. Isломov tadqiqotida suv bilan bog'liq geografik tushunchalar izohlangan [Исломов И., 2019]. A. Aliqulov "yog'in" tushunchasini yog'ish harakatini ifodalovchi leksik birliklar uchun birlashtiruvchi, umumlashtiruvchi birlik sifatida talqin qilgan. Yog'in leksemasiga qor, yomg'ir, do'l, jala, shudring, qirov giponim leksemalarining giperonimi sifatida yondashgan [Аликулов А.Ф., 2011].

O'zbek tilida suv so'zining bosh va hosila semasi, qishloq xo'jaligida alohida semantik qator hosil qilishi xususida asosli manbalar mavjud. Biroq leksemaning lingvokulturologik xususiyatlari yuzasidan tadqiqot obyektini sifatida monografik planda alohida ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Suv tiriklik uchun zarur bo'lgan ne'mat hisoblanib, uning xususiyatlari tabiiy fanlar kesimida tadqiq qilingan. Suvning agregat holatlari, fizik va kimyoviy xossalari, agrotizimdagi o'rni aniq va tabiiy fanlar doirasidagi asosiy mavzulardan biri sanalsa, ijtimoiy fanlar, xususan, falsafada, adabiyot, tilshunoslik sohalaridagi suv bilan aloqadorlikdagi talqinlar moddaning agregat holati va xususiyatlari bilan bog'liq. Ijtimoiy-gumanitar sohalarda suv va inson xarakter-xususiyatlari, temperament, mijoz, xulqning o'zaro bog'liq jihatlari haqidagi qarashlar keng tarqalgan. Aniq va tabiiy fanlarda suv mavjud moddiylik, kimyoviy ashyo sifatida tadqiq qilinadi. Ijtimoiy-gumanitar sohalarda suv konsept, tushuncha, leksema darajasida tahlil qilinadi. Bugungi kunda dunyo tilshunosligida yuzga yaqin tadqiq metodlari qayd etilgan bo'lib, lingvistik obyektning turli jihatlari va xususiyatlarini aniqlashga, dalillashga qaratilgan. Ularning aksariyatini uch paradigma asosida birlashtirish mumkin bo'ladi: qiyosiy-tarixiy paradigma; struktur-sistem paradigma; antropotsentrik paradigma. Mazkur paradigmalar ketma-ketligini har bir leksema, lingvistik kategoriyalar tadqiqida ko'rish mumkin. Shunga asoslanib,

suv leksemasi bilan bog‘liq izlanishlarni tadqiqot yo‘nalishiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Qiyosiy-tarixiy paradigma asosidagi tadqiqotlar.
2. Sistem-struktur paradigma asosidagi tadqiqotlar.
3. Antropotsentrik paradigma asosidagi tadqiqotlar.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Maqola mavzusini yoritishda tavsifiy, tasnifiy, qiyosiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis results).** Mazkur maqolada suv tahliliga oid qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur paradigma asosidagi tadqiqotlar borasida to‘xtalamiz.

Qiyosiy-tarixiy paradigma asosidagi tadqiqotlar. Dunyo tilshunosligidagi dastlabki va yirik lingvistik tadqiq paradigmasi qiyosiy-tarixiy paradigma hisoblanadi. Ushbu paradigma XIX asrning boshlariga qadar tilshunoslikdagi asosiy tadqiqot metodi va usuli bo‘lib, bu yondashuv asosida dunyo tillari, ularning fonetik, leksik, grammatik tuzilishidagi o‘xshash va farqli jihatlar o‘rganilgan. Qiyosiy-tarixiy paradigma asosida dunyo tillari yirik va tizimli tarmoqlarga birlashgan, qardosh va qardosh bo‘lmagan bo‘lmagan tillar oilalari tushunchasi shakllangan. Bugungi kunda ham filologik tadqiqotlarda qiyosiy-tarixiy paradigma metodlari, xususan, qiyosiy va chog‘ishtirma metodlardan keng foydalaniladi. Xususan, dunyo tilshunosligida suv leksemasi tadqiqida ham qiyosiy va chog‘ishtirma metodlar asosidagi xulosalar bayon qilingan. Jumladan, qadimgi dunyo tillari va ularning umumiy oilalarga birlashishi va umummadaniy so‘zshakllar mavjudligi, dunyo tillarida keng qo‘llanadigan inglizcha water va ruscha voda leksemalari qiyosiy aspektida tadqiq etilgan. Umumiy til oilalarida suv leksemasining ham fonetik, ham lisoniy belgilari o‘zaro o‘xshash, ularning lingvistik-lisoniy tarkibi aynan bir o‘zakdan kelib chiqqanligi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Inglizcha [water] va ruscha [voda] leksemalarining umumbashariy xarakterga ega ekanligi, umumiy asos – [wetV] o‘zagidan kelib chiqqani qayd etilgan. Yirik til oilalariga ko‘chish jarayonida struktur-grammatik jihatdan o‘zgarishlarga uchragan. Mazkur qarashlar nostratik gipoteza asosidagi talqinlar bo‘lib, unga ko‘ra bir qator tillardagi o‘xshashliklar e‘tirof etiladi. Tilshunoslik nazariyasiga oid manbalarda nostratik gipotezaning mohiyati yoritilgan: “...an‘anaviy til oilalaridan kengroq bo‘lgan, bir-biriga qardoshligi to‘la asoslanmagan til oilalarini “makro til oilalari” deb nomlash taklif qilingan. V.M. Ilich-Svitich tadqiqotlarida aks etgan nostratik gipoteza (lotin tilida noster “bizniki” ma‘nosini beradi) til oilalarini yanada kengroq doiradagi genetik asosga birlashtirishni nazarda tutadi. Nostratik makro til oilasiga hind-yevropa, ural, oltoy, kartvel, dravid tillari kiritilgan”. Leksemani nostratik gipoteza asosida tahlil qilgan Telejko G.M. suv leksemasining umumiy tillarga xos bo‘lgan ko‘rinishlarini keltirgan: hind-yevropa oilasida: dō(w)-; oltoy oilasida: t`uja; ural oilasida: toye; dravid oilasida: ta-. Tadqiqotchi qadim zamonlarda “suv” va “yomg‘ir” ma‘nosini bildiruvchi o‘zakning semantik tarkibida “bermoq” va “tuhfa” semalari bo‘lganligini aytadi. Leksemaning mazkur jihati bilan bog‘liq fikr-mulohazalar boshqa yirik lisoniy paradigmalarda ham leksemaning hosila semalariga nisbat berilgan holda talqin etiladi [Telejko G.M., 2021].

Suv tushunchasini ifodalovchi leksemalarning qardosh tillar o‘rtasidagi mushtarak xususiyatlarini ko‘rsatishga qaratilgan tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda so‘zning tashqi (fonetik) va leksik-grammatik belgilarida ham o‘xshashlik kuzatilishi qayd etilgan. A. Borisova rus va polyak tilidagi вода/woda [Борисова А.Б., 2012] so‘zlarini qiyoslab, ularni birlashtirib turuvchi korrelyativ semalarni besh yirik guruhga birlashtiradi:

1. Suv – suyuq, shaffof, tiniq, kimyoviy jihatdan vodorod va kisloroddan tarkib topgan element. Bu sema har ikki tilda ham so‘zning bosh ma‘nosi uning hosila semalari vujudga kelishi uchun asos bo‘ladigan dominant semasidir.

2. Suv – makon: suv to‘plangan va mavjud bo‘ladigan joy nomlari – ko‘lmak, ko‘l, irmoq, ariq, kanal, daryo, dengiz, okean va h.k. Mazkur birliklar suvning mavjud bo‘lish o‘rni semasidan kelib chiqib, tarkibiga ko‘ra bosh va hosila semalarga ajraladi.

3. Suv – havo: mazkur guruh suvning agregat holatlaridan biri gaz holati bilan bog‘liq bo‘lib, tabiatda ham ayni holat bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalarni aks ettiradi: bug‘, par, tuman. Mazkur birliklarni ham bosh va hosila semalarga ajratish mumkin.

4. Suv – qattiq jism: mazkur guruh ham suvning atmosferadagi agrerat holatlaridan biri qattiq jism holatini ifodalaydi: muz, qor, qor parchasi, sumalak, do‘l. Leksemalar tarkibini bosh va hosila semalarga ajratish mumkin.

5. Suv – tomchi – atmosferadan tomchi ko‘rinishida yerga tushadigan hodisalar: yomg‘ir, jala. A. Borisova tasnifi istalgan til oilalarini qiyosiy, chog‘ishtirma aspektda o‘rganishda ahamiyatli.

Qiyosiy-tarixiy paradigma asosidagi tadqiqotlar tarixiy manbalardagi leksemalar ma‘nosini tahlil qilishga ham qaratilgan.

Suv hayotga tenglashtirilgan millatimizda daryolar, buloqlar haqidagi bilimlar asrlar davomida xalq xotirasida saqlanib kelmoqda [Хикматов Ф., Сирлибоева З., Айтбаев Д., 2000. 7.]

Geograf olimlar suv ilmi – gidrologiyaning dunyo miqyosida qadimdan to hozirgi kunga qadar rivojlanishida va alohida fan sifatida e‘tirof etilishida O‘rta Osiyolik olimlarning ham munosib hissalarini borligini ta‘kidlaydilar. F. Hikmatov O‘rta Osiyoda suv ilmiga oid ilk fikrlarning shakllanishi va rivojlanishini quyidagi bosqichlarga bo‘lgan:

1. Qadimdan yangi eraning IX asrigacha bo‘lgan davr.

2. IX asrdan XIII asr boshlarigacha, ya‘ni mo‘g‘ullar istilosigacha bo‘lgan davr – Sharq Uyg‘onish davri.

3. XIV asrning o‘rtalaridan XVI asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davr – temuriylar davri.

4. XVI asrning ikkinchi yarmidan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davr.

5. XX asr boshlarigacha bo‘lgan davr.

6. Sho‘rolar davri.

7. Mustaqillik davri [Хикматов Ф., Айтбаев Д., 2006. 8.]

Suv yo‘llari qomusiy olimlar tomonidan keng qo‘llangan tushuncha bo‘lib, suv ilmida foydalanilgan.

Ahmad al-Farg‘oniy suv o‘lchash inshooti – “Nilometr”dan amalda foydalanish haqidagi jadvallar, ko‘rsatmalar, tavsiyanomalar majmuyidan iborat “Miqyosi jadid” qo‘llanmasini yaratgan. Matematika, geodeziya fanlari yutuqlarini gidrologiyaga tatbiq etgan [Бўриев О., 1998. 16.] Qomusiy olimlarning so‘z ma‘nosi, tilning ijtimoiy vazifalariga doir talqinlari, so‘z ma‘nosi, uni tasniflash, olamning lisoniy manzarasining tildagi ifodasiga doir ma‘lumotlar tadqiqotlarda yoritilgan [Нурмонов А., 2012. 262-263.]

X asrga oid qo‘lyozmalar orasida muallifi noma‘lum bo‘lgan “Kitobi hudud al-olam minal mashriq ilal mag‘rib” (Sharqdan g‘arbgacha olam chegaralari kitobi) asari gidrologiya va gidrografiya tegishli ma‘lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi. Asarda jahondagi yirik daryolar, ularning qayerdan boshlanib, qayerga quyilishi, suvning yerlarni sug‘orishga sarflanishi, kemachilikka mos daryolar tavsiflangan. Suvliklarning tarixiy nomlari keltirilgan: “Sharqiy viloyatlarning eng chekkasida daryoyi Sabz (Yashil dengiz) bor. Bu dengizni rumiyaliklar (greklar) O‘qiyonusi Mashriqiy (Sharqiy okean) derlar, arablar Bahr al-Azhar derlar”. Bu yerda gap Tinch okean ustida bormoqda. Shu kabi Atlantika okeani, uning o‘rni, suvining rangi, ta‘mi, hidi haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Hind okeani, O‘rta dengiz, Kaspiy dengizi, Qora dengiz haqida o‘z davriga nisbatan muhim gidrologik ma‘lumotlar keltirilgan [Хикматов Ф., Айтбаев Д., 2006. 41.]

X asrga oid “Kitobi hudud al-olam minal mashriq ilal mag‘rib” (Sharqdan g‘arbgacha olam chegaralari kitobi) asarida shunday deyilgan: “Daryo ikki xil bo‘ladi, biri – tabiiy daryo, ikkinchisi – sun‘iy. Tabiiy daryolar suvi qorliklarning erishidan (hosil) bo‘ladi va tog‘lardagi chashmalardan chiqib, yer betidan oqadigan suvlardan (hosil) bo‘ladi, ular o‘ziga yo‘l yasab, oqar joyi goh kengayib, goh torayib (tang), dengizga yoki botqoqlikka yetguncha oqadi. Sun‘iy daryolar o‘zanlari qazilgan va suvi shaharlarni obod qilish uchun yoki viloyatning ekinlarini sug‘orish uchun mo‘ljallangan daryolardir”. “Hudud al-olam”da okeanlar, dengizlar, ko‘llar haqida ko‘plab gidrologik ma‘lumotlar keltirilgan [Хикматов Ф., Айтбаев Д., 2006. 41.]

X asrda yashagan tarixchi olim Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari ham suv ilmi nuqtayi nazaridan diqqatga sazovordir.

Abu Rayhon Beruniyning “O‘tgan avlodlar yodgorligi”, “Hindiston”, “At-Tafqim”, “Qonuni Mas‘udiy”, “Geodeziya”, “Minerologiya” kabi asarlarida okeanlar, dengizlar, daryolar, ko‘llar, buloqlar haqida gidrologiya fani uchun qimmatli fikrlar bayon qilingan.

Okeanlar, dengizlar, ko'rfazlar, quruqlik suvlari, daryolar, soylar, buloqlar, ko'llar, qorliklar, muzliklar, botqoqliklar va hatto yer osti suvlari haqidagi ilmiy qarashlar yoritilgan. "Hindiston" asarida "Okeanologiya"ga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Tinch ("Sharqiy dengiz" yoki "Sharqiy muhit") va Hind ("Ulug' dengiz") okeanlari, Bo'ntus (Qora dengiz), Shom (O'rta dengiz), Xazar (Kaspiy) dengizi, Xorazm (Orol) dengizi, Issiqko'l, Etil (Volga), Nil, Jayxun, Oksart daryolarining tavsifi berilgan. Beruniyning okeanlar, dengizlar ilmiga qo'shgan hissasi yevropalik olimlar ta'biri bilan "Beruniyning dengizlar nazariyasi" nomini olgan [Хикматов Ф., Айтбаев Д., 2006. 46.].

Turkiy tillardagi "su" va uning boshqa tillardagi muqobili qiyosiga asoslangan ishlar ham mavjud [Донидзе Г., 1969. 334.]. "Devonu lug'otit-turk"da suv asosli 22ta leksema qayd etilgan: suw 1) suv; 2) daryo; yer suw "qit'a" (E.46-6). Etilь mьgrьnnuь quзь- Volga (Itil) daryosi suvi [DLT, 19].

DLTda suv leksemasi va undan shakllangan quyidagi so'zlar uchraydi:

sьw – cuv [DLT III, 142] sьwaldi – suғorildi [DLT II, 142], sьwladı – suv ichdi, suv qo'ydi [DLT III, 312], sьwlandı – suv bo'ldi, namlandi [DLT II, 288], sьwsadi – suvsadi [DLT III, 299], sьwğardi – sug'ordi [DLT II, 218], sьwğardachi – sug'oruvchi [DLT II, 298], sьwğarimsindi – sug'orayotgandek ko'rindi [DLT II, 234], sьwğariьldi – birgalikda sug'orishdi [DLT II, 234], sьwğartı – biron orqali sug'ortirdi [DLT II, 297], sьwğarğuchi – sug'oruvchi [DLT II, 55,298], sьzyndı suw – tindirilgan suv [DLT I, 420], sьzyk suw – tiniq suv [DLT I, 370], sьwlağ – mollar suv ichadigan joy [DLT I, 431], sьwsatti – suvsatti [DLT II, 388, sьwsidi – suv xususiyatini o'ziga oldi [DLT I, 279], sьwsulь – suv qo'shilgan sharob yoki ayron [DLT I, 428], sьwğarilg'i – sug'oriladigan [DLT II, 209], sьwğariğsaq – sug'orishga kirishadigan [DLT II, 298], erkin sьw – suv to'plami [DLT I, 132], sьw sawryldi – suv ko'pirib mavjlandi [DLT II, 269], sьwlandı – suv bo'ldi [DLT II, 288], aqindi sьw – oqar suv [DLT I,158], batruь sьw – loyqa suv [DLT I,428], sьw qaqlandi – suv yig'ildi [DLT II, 299], sьw qoğulьlandi – suv shovulladi [Кошғарий Махмуд., 1960-1963. 466.].

"Devonu lug'otit-turk"dagi so'zlarni o'rganib chiqish, unda 1200dan ortiq gidrologiya atamaları mavjudligini aniqlashga imkon beradi. 1-jildda 218ta, 2-jildda 447ta va 3-jildda 562ta gidrologik hodisalar va jarayonlarni ifodalaydigan so'zlar mavjud. Masalan: alıь – suvning hovuzga quyiladigan o'rni (joyi); aqın – sel; munduz aqın – to'satdan kelgan sel; ьзьк – yerdan sirqib chiqib, hovuzga aylangan suv, sizot suv; eyrim – suv to'plangan joy; qızığ – dengiz, ariq, vodiy qirg'og'i, qum – suv to'lqini. "Devonu lug'otit-turk" suv manbalari – dengizlar, daryolar, ko'llar, soylar va buloqlar nomlari keltirilgan:

a) "Devon"ga ilova qilingan xaritada suv manbalari nomlari (Abisgun – Kaspiy dengizi, Ertıь – Irtish daryosi, Jayxun – Amudaryo, ьykol – ko'l nomi va boshqalar);

b) lug'atda alifbo tartibida berilgan suv manbalari nomlari (Azğıraq suv – daryo nomi, Etil (Volga) – daryo nomi, Isığkol (Issiqko'l), Taman – soy nomi). Umuman, "Devon"da 100dan ortiq suv manbalari nomlari uchraydi [Кошғарий Махмуд., 1960-1963. 466.].

"Devonu lug'otit-turk"da "Qazmish ariq" (qazilgan ariq) nomlari keltirilgan [Кошғарий Махмуд., 1960-1963. 466.].

"Devonu lug'otit-turk" suv va suv komponentli terminlar, tushunchalar ma'nosini qamrab olgan. Devonda suv va suvchilik, dehqonchilikka oid katta hajmdagi ma'lumotlar jamlangan. Shu bilan bir qatorda lug'atdagi ayrim so'zlar izohi so'z etimologiyasini oydinlashtirishga ham xizmat qiladi. O'zbek tilida "chanqash" ma'nosida qaqramoq fe'li qo'llanadi. Qaqramoq – nami qochib yoki suvsizlikdan, tashnalikdan qurib qolmoq; quruqshamoq. Qaqragan cho'l [O'TIL, V, 270.]

Bu so'zning asosi qaq o'zagiga borib taqaladi. Yomg'ir yoki sel suvidan paydo bo'lgan ko'l qaq deb yuritilgan [Хикматов Ф., Айтбаев Д., 2006. 50.]. Tilimizda shu asosdan yuzaga kelgan qoqsuv leksemasi ham mavjud. Qoqsuv – cho'l, dashtlarda yomg'ir suvlaridan, ularning to'planishidan hosil bo'lgan, keng va sayoz halqob joy, chuqurroq joyda to'planib qolgan yomg'ir suvi. Bu so'z qaq/qoq – qaq suv shaklida V. Radlov lug'atida ham keltirilgan [Жабборов Х., 2005. 57]. Og'zaki nutqda qoq suv, qoq, qox, suvloq, obxona tarzida qo'llanadi. Qoq suv O'rta Osiyo xalqlari hayotida qadimgi suv havzalaridan biri hisoblanadi. Qiyoslang: qoq –

qurigan, qotgan, yerning o'ta qattiqligiga nisbatan nomlangan [Жабборов Х., 2005. 74.]. Qoq/qaq – “suv yig'indisi, to'plami” ma'nosidagi so'z, keyinchalik “suvsizlik” tushunchasini ifodalagan: qaqrab yotgan cho'llar.

“Devonu lug'otit-turk”da suv komponentli quyidagi birliklar uchraydi: “suvoldi” (sug'orildi), “ol suvug' tamuladi” (u suv to'g'onini mahkamladi), “tuzun” (mirob, qishloq oqsoqoli), “chatba” (ariq qazishga, to'g'on bo'g'ishga chiqmaganlardan qishloq oqsoqoli – tuzun oladigan soliq), “bandi” (bog'landi, suv yo'li to'sildi), “chig'ri” (suv tegirmoni parragi, suv chiqaradigan chig'riq – suvni ma'lum balandlikka ko'tarib beruvchi inshoot – charxpalak), “borung” (suv oqimi hosil qilgan o'yiqlar), “qardi” (suvning muz ustidan oqib toshishi), “qir”, “tug'” (to'g'on), “yo'l”, “mingar” (buloq ko'zi), “kengas”, “sayram” (sayoz-to'piqdan keladigan suv) atamalari ham uchraydi [Ҳикматов Ф.Ҳ., Айтбаев Д.П., 2006. 50-52.].

“Devonu lug'otit-turk”dagi suv bilan bog'liq birliklar terminologiya nuqtayi nazaridan tahlil etilgan [Айтбаев Д.П., 1999. 178-181.].

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida “So'zum uksumadi, suvi uksudi” maza-tuturiq ma'nosida qo'llangan. Asarda suvsamishqa – suvsaganda, yashil suv – zilol suv, suv ichar – suv ichar, ko'z suvi – uyat, andisha, tiriklik – obi rahmat birliklari ishlatilgan [Жабборов Х., 2005. 72.].

XIV asr eski o'zbek tili manbalarida suvar – sug'or, suvaryl– sug'orilmoq, suvsuzluq – suvsizlik, suvla – suv ichiladigan joy, suvlug' – suvli, suvsa, susa-chanqamoq, suvsat – suvga zoriqtirmoq, suvg'ar – sug'ormoq, suvsaliq – tashnalik so'zlari uchraydi [Фазылов Э., 1971. 303.].

Alisher Navoiy asarlarida suv, suv yil, Xizr suyi, suvor, suvsiz, suva, suy, suvol, suvar, sug'ormoq, suvor, suchi so'zlaridan mahorat bilan foydalangan. X. Jabborov Alisher Navoiy ijodida suv so'zining qo'llanishiga doir tahlillarni amalga oshirgan [Жабборов Х., 2005. 28-30.].

“Boburnoma” asarida ham yurtimiz gidrografiyasi – daryo va soylari, buloqlari, ko'llari ta'rif-tavsifiga tegishli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Unda suv manbalari, daryolarning chuqurligi, muzlashi, oqim rejimi, oqim miqdori (necha tegirmon suv oqishi) batafsil ta'riflangan [Ҳикматов Ф., Айтбаев Д., 2006. 34-37.].

Qiyosiy-tarixiy yo'nalishdagi izlanishlarda suv bilan bog'liq tushunchalar etimologiyasi ham o'rganilgan [Бафоев Б. ЎТА, 1992. – №2. 34-37.].

X. Jabborov eski turkiy tilda suv leksemasi ishtirokida 30ga yaqin leksema, hozirgi o'zbek tilida 700dan ortiq so'z, qo'shma so'z, so'z birikmalari yasalgan, deb keltiradi [Жабборов Х., 2005. 31.].

Qiyosiy-tarixiy metod va unga asoslangan paradigma tilshunoslikda ko'p yillar davomida turlicha talqin qilib kelingan. Mazkur paradigma sistem-struktur va antropotsentrizm yo'nalishlaridagi aksar tadqiqotlar uchun nazariy asos vazifasini o'tadi.

O'zbek tilshunosligida sistem-struktur yo'nalishdagi tadqiqotlar soha leksikasi tahliliga [Абдиев М., 2004. 65.], tizimli tahlilga [Собиров А., 2004. 23.] bag'ishlangan. Sistem-struktur tilshunoslik paradigma asosidagi tadqiqotlarda lingvistik hodisalarni tizimlarga, guruhlariga birlashtirish, tizimli tasniflash masalasi asosiy e'tiborda turadi. Tizimlashtirishning mazmuniy maydon asosida ko'rinishiga oid tadqiqotlar lingvistik birliklar o'rtasidagi munosabatlarni yoritishga xizmat qildi [Искандарова Ш., 1998. 20.].

Suv sistem-struktur jihatdan bir necha yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Birinchi navbatda, so'zning semantik, statistik qo'llanish doirasi, morfemik va grammatik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarni qayd etish zarur. Tojik tilidagi ob so'zining semantik-uslubiy xususiyatlari yoritilgan. Ishda suv va suv bilan bog'liq leksemalar qiyoslanib, so'z yasaliş jarayoni, suv bilan bog'liq yangi leksemalarning shakllanish jarayonlari talqin qilingan [Содиқов Т. Ўзбек тили ва адабиёти. 1982. – Б.57-59.].

Rus tilshunosligida mazkur tipdagi tadqiqotlar o'tgan asrning so'nggi choragi va XXI asrning birinchi o'n yilligidan boshlab ommalashdi. Xususan, adabiy manbalar va ularda so'zning qo'llanishi bilan bog'liq xususiy chastotali lug'atlar tuzildi.

Struktur-semantik tahlillar, birinchi navbatda, tilning sinxron ko'rinishiga bag'ishlangan, leksemaning semantik tarkibi, leksik-semantik maydoni va qurshovi, ma'no xususiyatlari xususidagi tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Xususan, rus tilshunosligida suv leksemasi va uning semantik

xususiyatlari, semantik tarkibi xususidagi tadqiqotlar ko'p miqdorni taskil etadi. Jumladan, Y.Zinsova [Зинцова Ю.Н., 2009. – С. 22.], birinchi navbatda, dunyoda suyuqlik xususiyati va ushbu xususiyatga ega bo'lgan hodisalarning mavjudligi tabiiy ravishda istalgan til va uning lisoniy manzarasi uchun juda katta imkoniyat ekanligini ta'kidlaydi. Jumladan, "suyuqlik" leksemasini semantik qurshovga ajratish jarayonida leksemaning dominant ma'nosi va asosiy belgisi bo'lgan suyuqlik xossasi mutlaqo o'zgarib ketishi mumkin ekanligini aytadi. "Suyuqlik" leksemasining yadrosini suv semasi tashkil qiladi. Undan keyingi pog'onalarni suv xususiyatiga ega istalgan jism tashkil qilishi qayd etilgan.

### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, dunyoning turli tillarida suv tushunchasi bir necha sememalardan iborat bo'lgan, murakkab leksik tizimni tashkil qiladi. Ushbu sememalar tizimida suvning funksional, tabiiy va agregat holatlari, joylashuv o'rni va xususiyatlari asos bo'ladi. Uning konnotativ sememalari talqini esa ancha murakkab, u diniy omil asosida shakllangan bo'lib, o'zida tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy axborot saqlaydi.

Lingvistik yondashuv va tadqiqotlar tadrijida leksemaning mohiyati kengayib, abstraktlashib boradi. Dunyo tilshunosligi tajribasida, leksema tadqiqi uchun tanlangan metodlarni o'rganish, tahlil qilish shu jihati bilan ahamiyatliki, ulardan o'zbek tilidagi suv leksemasining mohiyati, umumturkiy jihatlarga ishora qilishi, milliy-lisoniy manzaradagi ahamiyati va poetik xususiyatlarini yoritishda foydalanish mumkin.

O'zbek milliy mentalitetida va jamiyatning moral axloq qoidalarida musaffolik, soflik, tozalik tushunchalari bilan assotsiatsiya hosil qiluvchi suv so'zining lingvistik, lingvokulturologik, kognitiv-semantik xususiyatlarini va umumlingvistik jihatlarini shu nuqtai nazardan ko'rsatish dolzarblik kasb etadi. Suv so'zi va u ishtirok etgan turg'un birikmalarning semantikasiga alohida tadqiqot obyekti sifatida qarash, ularning lingvokulturologik va umumlisoniy mushatarakligi mohiyatini ochishga qaratilgan tadqiqotlar ko'lami va sifatini oshirish milliy qadriyatlarni yoritishda, til sohibining obyektiv olamni suv orqali kodlashtirishida muhim o'rin tutadi.

Suv leksemasi o'zbek tilshunosligida sistem-struktur tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Ayrim tadqiqot ishlarida suv leksemasining assotsiativ xususiyatlari bilan bog'liq semalar tahlil qilingan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son farmoni. // <https://lex.uz/docs/5058351/> / 2020-yil, 20-oktabr.
2. Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
3. Алиқулов А.Ф. Ел-ёғин луғавий маъновий гуруҳи (тизими, қўлланилиши, лексикографик талқини. Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2011.
4. Айчичек М. Репрезентация концепта вода фразеологической картине мира (на материале русского, турецкого и английского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2012.
5. Айтбаев Д.П. Махмуд Кошғарийнинг "Девону луғотит турк" асаридаги сув илми атамалари ва гидрографик маълумотлар ҳақида // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. – Тошкент, 1999.
6. Бадмаева Т.И. Концепт вода на английской лингвокультуре. Дисс... канд. филол. наук. – Волгоград, 2006.
7. Бафоев Б. Кўл сўзининг маънолари ва тарихи // ЎТА, 1992. – №2. – Б. 34-37.
8. Бэ Сон Хен. Концепт «воздух» в современном русском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2006.
9. Борисова А.В. Особенности лексико-семантической корреляции единиц поля вода / woda в русском и польском языке / Филология и искусствоведение, 2012. – С. 166-68.

10. Бўриев О. Ал-Фарғоний ва унинг илмий мероси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
11. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмские памятники XIV века. Том II. – Ташкент: Наука, 1971.
12. Галдин У. В. Концепт вода как полевая структура и способы его выражения в русском языке (на материале поэтических текстов И.А.Бродского). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ставрополь, 2006.
13. Гришина Н.В. Концепт вода языковой картине мира: На основе номинативного и метафорического полей русского языка XI-XX века. Дисс... канд. филол. наук. – Саратов, 2002.
14. Ҳикматов Ф., Сирлибоева З., Айтбаев Д. Кўллар ва сув омборлари географияси, гидрологик хусусиятлари. – Тошкент: Университет, 2000.
15. Ҳикматов Ф., Айтбаев Д. Ўрта Осиё сув илми тарихига оид маълумотлар. – Тошкент: Университет, 2006.
16. Ҳикматов Ф., Шожалилов Ш., Айтбаев Д. Аҳмад Фарғоний – сув илми ёхуд “Миқёс ан-Нил” таърифи. – Тошкент: Университет, 2000.
17. Ҳикматов Ф., Айтбаев Д. Аҳмад Фарғоний сув илми билимдони / ЎзГЖ ахбороти, 19-жилд, 1998.
18. Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 1998. – Б.20; Ҳошимов А. Лексемаларни майдонларга бўлиш тамойили. – Тошкент, 1998.
19. Исломов И. Ўзбек тилида ер сатҳи бирликларини ифодаловчи атов бирликлари тизими. Филол. фани. Филол. фан фалс. док. (PhD)...дисс. автореф. – Қарши, 2019.
20. Жабборов Х. Ўзбек тилида сув лексемасининг луғавий-маъновий хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2005.
21. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002; шу муаллиф. Танланган асарлар. III жилдли. – Тошкент: Академнашр, 2012. 3 жилд.
22. Мирзаева Т.В. Семантический объем лексемы вода в поэзии Вячеслава Иванова: “Кормчие звезды”. Дисс... канд. филол. наук. – Тамбов, 2008.
23. Потасова А.К. Вербализация концепта «огонь» в древнегерманских языках. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Томск, 2004.
24. Радлов В. Опыт словаря тюркских наречий. – Санкт-Петербург: Типогр. Императорской Академии наук, 1989. Т.II.-Ч.I.
25. Седова М.А. Концепт aghe / вода во фриульском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2007.
26. Собиров А. Ўзбек тили лексик сатҳини системалар системаси тарзида ўрганиш. – Тошкент: Фан, 2004.
27. Содиқов Т. Об компонентли сўзлар / Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982.
28. Старостина О.В. Функционирование единиц лексико-семантической группы вода в поэзии Серебряного века. Дисс... канд. филол. наук. – Казан, 2016.
29. Трофимова А.В. Концепт «огонь» в современном русском языке. Автореф. дисс...канд. филол. наук. – М., 2005.
30. Тележко Г.М. О Смысловой структуре ностратической лексемы со значением «вода» // Universum: филология и искусствоведение: электрон. научн. журн. 2021. 8(86). URL: <https://7universum.com/ru/philology/archive/item/12191> (дата обращения: 07.06.2022).
31. Вражнова И.Г. Идиоматика в когнитивном и лингвокультурологическом аспекте (на материале фразеологических единиц с компонентами семантического «вода» в русском и английском языке). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2004.
32. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик (А. Мадвалиев таҳрири остида). – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006-2008. I ж. – 680 б., II ж. – 672 б., III ж. – 688 б., IV ж. – 608 б., V ж. – 592 б.
33. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент, 2000. – 600 б.

34. Закиров М.И. Концепт вода / су в русских и татарских народных приметах. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Казань, 2009.
35. Хайруллина Д.Д. Бинарные концепты «огонь» и «вода» как фрагмент языковой картины мира (на материале английского и татарского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2009.
36. Зинцова Ю.Н. «Лексико-семантическое поле «жидкость» в современном немецком языке»: авто. .. канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2009.
37. Шмельёва Е.Е. Лингвокультурологические особенности морской лексики в английском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2009.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА  
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000